

RESPUBLIKA METODIKA VA AXBOROT MARKAZI
O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT INSTITUTI

Xatira Djuldikaraeva

SAHNA NUTQI
(talaffuz texnikasi)

*san'at institutiti va kollejlar
talabalari uchun o`quv qo`llanma*

Toshkent – 2008

Annotatsiya

Ushbu qo'llanma talaffuz texnikasi ustida ishlab, nutqni o'stirish vazifasini o'z oldiga qo'yadi. Unda nutqni o'stirishning o'sib boruvchi tizimi nazarda tutilgan. Har bir tovushlar alohida, boshqa tovushlar bilan birgalikda talaffuz qilinadi, shu asnoda kichik grammatik shakldan katta grammatic shaklga tomon talaffuzni o'stirib borish tizimi ta'minlangan. Qo'llanma so'nggida talaffuzni o'stirishga xizmat qiluvchi o'zbek xalq maqollari alfavit tartibida berildi. Qo'llanma san'at olivy o'quv yurtlari, kollejlari va akademik litseylar talabalari uchun mo'ljallangan.

Shuniggdek, ushbu qo'llanmadan talabalar mustaqil ishlash uchun foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar:

M.I.XOLIQOVA,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

G.XOLIQULOVA,
san'atshunoslik nomzodi

Mas'ul muharrir:

H.I.ISMOILOV,
filologiya fanlari nomzodi;

Muharrir:

D.Yu.KARABAEVA

«Sahna nutqi» fanidan tuzilgan mazkur o'quv qo'llanma O'zbekiston Davlat san'at institutining Ilmiy Kengashi tomonidan 28 dekabry 2007 yilda nashrga tavsiya etildi.

© Djuldikaraeva., 2008.

SO'ZBOSHI

Inson nutqi uning ko`rki hisoblanadi. Nutq, chiroyli ovoz, tushunarli talaffuz madaniyatni kishini ko`rkam libosdanda ko`proq bezaydi.

Ushbu qo'llanma muallifi talaffuz va orfoepiya mashqlari orqali talabalarning nutqini o'stirish zaruriyatini ta'kidlaydi. Muallif qo'llanmani yaratishda nafaqat o'zining, balki «Sahna nutqi» kafedrasini etakchi o'qituvchilari professorlar L.Xo'jaeva, N.Aliyeva, I.Po'latov, dotsent R.Sayfuddinov va Z.Olimjonovalarning ko'p yillik tajribasiga tayanib yaratdi.

Qo'llanmada tavsiya etilayotgan mashqlar orqali talaffuzdagi kamchiliklar va sheva bilan bog'liq qusurlardan talabalarni qutqarish, nutq imkoniyatlari va nutq madaniyatini oshirish nazarda tutiladi. Shuningdek, qo'llanmada birinchi bo'lib «talaffuz» va «orfoepiya»ni bir butun qilib birlashtiradigan mashqlar va uslubiy tavsiyalar keng taqdim etiladi. Nutqda mavjud nuqsonlarni tahlil etilishi shu mavzuga murojaat etuvchilarning ehtiyojini qondiradi, ular nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar olishlari mumkin.

Poytaxtda O'zbekistonning turli shahar va xududlaridan kelgan kishilarni uchratish mumkin. Tabiiyki, xorazmlik yoki surxondaryolikning nutqi poytaxtlilarni nutqidan farq qiladi. Negaki har bir insonning xususiyat jihatlarini shakllanishiga hayot tarzi, oila, maktab, bilim darajasi, muloqot doirasi va yashash joyi kabilar o'z ta'sirini o'tkazadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, yuqorida omillar ta'sirida shakllangan bo'lajak san'atkorlarning nutqini bekamu-ko'st qilish uchun yillar davomida og'ir mehnat talab qilinadi. Qo'llanma ana shunday qiyinchiliklarni engib o'tishda tayanch bo'lib qolishi mumkin. Kitobda berilgan mashqlarni qayta-qayta takrorlash, mustaqil tinimsiz shug'ullanish orqaligina yaxshi natijaga erishish mumkin.

Qo'llanmada so'z yuritilgan tovushlarni yanada mustahkamlash uchun kitob so'ngida o'zbek xalq maqollaridan namunalar alifbo tartibida keltiriladi.

NUTQDAGI UMUMIY NUQSONLAR

XX asrnинг со`нгги о`н yilligida nutq madaniyatining umumiy darajasiga bo`lgan e`tibor ma`lum darajada susayganligini ta`kidlash lozim. Nutqning tushunarsizligi va qorishiqligi, yot so`zlarning qalashib ketganligi va ularga qarshi kurashilmayotganligi, so`zlarni noto`g`ri qo`llash, til me`yorlariga e`tibor bermaslik, so`zlarga noto`g`ri urg`u qo`yish, lug`atlardan foydalanish ko`nikmasining yo`qligi kishilar nutqida nuqsonlarni vujudga keltiruvchi omillardandir.

Quyidagilar talaffuz chog`ida qiyinchiliklarga olib keluvchi jihatlar hisoblanadi:

1. Unli tovushlar talaffuzi;
2. «A» va «O» tovushlarining noto`g`ri talaffuz etilishi;
3. «I»ning o`rniga «E» ning talaffuz qilinishi;
4. «I»ning chuqur talaffuz etilishi;
5. Unli tovushlarni tushirib qoldirilishi;
6. Jarangsiz undoshlarni jarangli yoki aksincha talaffuz qilinishi;
7. «Ng» tovushini talaffuz qila olmaslik;
8. «S», «Z», «J» sirg`aluvchi tovushlarning noto`g`ri talaffuz etilishi;
9. «R» va «L» tovushlarini aralashtirib yuborilishi;
10. Qo`sishchalarini chaynab qo`yish;
11. «X» va «H» tovushlarini farqlay olmaslik;
12. «F» tovushini noto`g`ri talaffuz qilinishi.

Ushbu qo`llanmaning maqsadi kishilar va ayniqsa bo`lajak san`atkorlar nutqidagi yuqorida ko`rsatilgan nuqsonlarni bartaraf etishdan iborat. Muallif quyidagi mustaqil ish usullarini ham tavsiya etadi:

- nuqsonlarni aniqlash;
- orfoepiya va talaffuz me`yorlarini yodda tutish;
- nuqsonlar ustida «soddadan murakkabga», ya`ni tovush – bo`g`in – so`z birikmasi – gap – matn tartibida ishlash.

XUSUSIY NUTQ NUQSONLAR QANDAY ANIQLANADI?

- O'zingiz tanlagan matnni diktofonga yozing;
- yozuvni diqqat bilan tinglang;
- yozuvni boshqalarga ham eshittiring;
- o'zingizning va boshqalarning fikrini solishtirib ko'ring;
- qanday nutqiy nuqsonlar uchrayotganligini aniqlab oling.

O'zingizga tegishli sahifani oching.

Mazkur mavzuga oid mashqlar bilan tanishing.

Muallif tavsiya etayotgan mashqlar tartibi materialni birinchi mashqdan boshlab oxirigacha o'tashni nazarda tutadi.

Mashq ustida ishlash metodikasi:

- Mashqlarni bajarish shartini diqqat bilan o'qib chiqing;
- tavsiya etilayotgan materialni asta talaffuz qiling, uni to'g'ri bajarilayotganini nazorat qiling;
- har bir mashqni bir necha bor takrorlang.

UNLI TOVUSHLAR

Unli tovushlar o'pkadan chiqayotgan havo hisobiga hosil bo'ladi, yo'lida hech qanday to'siqqa uchramay chiqadi. Bu tovushlar nutqqa ko'rk va parvoz bag'ishlaydi.

O'zbek tilida nutq ohangi unli tovushlar bilan bog'liq. Unli tovushni noto'g'ri talaffuz qilish yoki uni tushirib qoldirish evaziga so'z faqat go'zalligi va jarangdorligidangina emas, balki ma'nosidan ham maxrum bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham qisqa, ham cho'ziq unlilarga e'tibor berish zarur.

Quyidagi unlilar ham cho'ziq, ham qisqa talaffuz qilinishi mumkin:

I – E – A – O – O' – U

Endi unli tovushlar talaffuzini tekshirib ko'ramiz.

Oyna oldida turib tovushlarni quyida ko'rsatilgan tartibda talaffuz qiling:

I – yuqori va past jag`lar yaqinlashadi, lekin tegmaydi, lablar nim ochilgan. Til uchi pastki tishlarga taqaladi. Yuqori va pastki tishlar uchi ko`rinadi. Lablar me`yorda yoyilishni kuzating.

E – til pastda, pastki tishlar darajasida yotibdi, tishlar orasidagi masofa kattalashadi. Lablar I tovush talaffuzidan ko`ra kengroq. Yumshoq tanglay ko`tariladi. Lablar yoyilib ketmasligiga e'tibor bering.

A – til erkin, yassi holatda. Pastki jag` tushirilgan. Og`iz katta ochiladi. Pastki jag` kengroq ochilishiga e'tibor bering, aks holda tishning orasidan gapirgandek bo`lib qoladi.

O – til bir oz ko`tarilib, orqaga siljiydi. Lablar halqa shaklida keng dumaloqlanadi.

Pastki jag` va yuz mushaklari erkin bo`lishiga e'tibor bering.

O` – lablar tor doira shaklida, qisman kengaytiriladi, yanada oldinroqqa cho`zilgan.

U – lablar tor doira shakliga keltiriladi va bir oz oldinga cho`ziladi. Lablar albatta halqa shakliga kelib, tovush bilan birga oldinga cho`zilishga e'tibor bering.

Unli tovushlar asosan a'zolarning tik vaziyatida talaffuz qilinadi, faqat lablar bo`ylama vaziyatda cho`ziladi. Talaffuzning tushunarligi tovushlarni eshituvchi tomonidan engil va erkin qabul qilib olinishiga bog`liq. Bunga nutqning nisbatan sekinroq maromi, tovush hosil bo`lishi jarayoniga e'tibor bilan munosabatda bo`lish va talaffuz a'zolarining to`g`ri ishslash orqali erishiladi. Unli tovushlar ustida ishslash uchun quyidagi mashqlar tavsiya etiladi:

1-mashq

– Quyidagi unlilarni ovozsiz talaffuz qiling:

I – E – A – O – O` – U

Tovushlar talaffuziga va bir unlidan boshqasiga o`tishga e'tibor bering.

– Bu unlilarni ovoz chiqarib talaffuz qiling.

– Har bir tovushni aniq talaffuz qilinishiga e'tibor bering.

2-mashq

Har bir qatordagi unlilarni bir nafasda talaffuz qiling. Har bir qatordan so'ng nafas oling.

Quyidagi unlilarning o'rmini almashtirib talaffuz qiling:

**E – A – O – O` – U – I
A – O – O` – U – I – E
O – O` – U – I – E – A
O` – U – I – E – A – O
U – I – E – A – O – O`**

3-mashq

Urg`uni bir tovushdan boshqasiga o'tkazib unlilar qatorini talaffuz qiling, ovozning uzlusiz chiqishiga e'tibor qiling, urg'u tushgan tovushni ta'kidlang.

**I – E – A – O – O` – U
I – E` – A – O – O` – U
I – E – A` – O – O` – U
I – E – A – O` – O` – U
I – E – A – O – O` – U
I – E – A – O – O` – U**

4-mashq

Jadvaldagi tovushlar qatorini «savol-javob»dan iborat suhbat tarzida talaffuz qiling. Har bir tovush talaffuzi saqlanishiga e'tibor bering.

Savol ma'nosini berilishiga, aynan tovush tegishli tovushda ko'tarilayotganligini tekshiring:

**I – E – A – O – O` – U?
I – E – A – O – O` – U.**

**I – E` – A – O – O` – U?
I – E` – A – O – O` – U.
I – E – A` – O – O` – U?
I – E – A` – O – O` – U**

I – E – A – O` – O` – U?
I – E – A – O` – O` – U.

I – E – A – O – O` – U?
I – E – A – O – O` – U

I – E – A – O – O` – U `?
I – E – A – O – O` – U`.

5-mashq

A) Bir necha unli tovushlarni birlashtiring. Yaxlit jaranglashni unutmang. Bu mashqda «savol-javob» ma’nosи bilan turli bo`g`inlar ajratiladi:

IE – IA – IO – IO` – IU
IEA – EAO – AOU – OO`U
IEAO – EAOU – AOO`U – OO`UI
IEAOU – EAOO`U – AOO`UI – OO`UIE
IEAOO`U – EAOO`UI – AOO`UIE – OO`UIEA

B) Bu mashqni quyidagicha bajaring: har bir qatordagi unlilarni yaxlit va alohida-alohida talaffuz qiling. Qatorni birinchi marta talaffuz qilishda tovushlar bir-biriga qorishadi, ikkinchi martasida har bir unli qisqa, uzuq-yuluq talaffuz qilinadi.

6-mashq

Bir bo`g`inli so`zlarni talaffuz qiling. Unli tovushlar jarangiga e’tibor bering:

ET	KAR	Bor	Sut	Shim
EP	Sal	Sor	But	Kisht
ESh	Dard	Or	Tut	Tish
ER	Pat	Tort	Qut	Ship
ERK	Aql	Qosh	Ud	Pisht
Bel	Yax	Yosh	Yuz	Bo`sh
Sel	Yarq	Yot	Yut	To`sh

Besh	Yalt	Yog'	Yurt	O't
Ter	Yar	Yov	Yuv	To'n
Bet	Yal	Yol	Yul	So'ng

7-mashq

Unlilarning talaffuziga e'tibor bering.

Bil – bir	Besh – tesh
Til – sir	Tuz – tus
Bor – tos	Bosh – tosh
Mos – xos	Mosh – boj
Tus – bus	Bo'sh – to'sh
Es – ez	Yuz – buz
El – bel	El – el

Topshiriq

Lug'at bilan ishlash.

Unli tovush chuqur va qisqa talaffuz qilinadigan bir bo'g'inli so'zlarni toping va ko'chiring.

Unli tovushning cho'ziq va qisqa talaffuzi

Zamonaviy nutqda unlilarni cho'ziq va qisqa talaffuz qilish bilan bog'liq ba'zi nuqsonlar uchrab turadi. Ayniqsa birin-ketin kelgan unlilarni talaffuz qilishda birining hisobiga ikkinchisini ortiqcha cho'zib yuborish hollari uchraydi. Bunday nuqsonlar faqat orfoepiya qoidalarini bilmaslik bilangina emas, balki nutqdagi ehtiyoitsizlik va shoshqaloqlik, talaffuz a'zolarining sustligi, fonematik eshitishning buzilishi bilan bog'liqdir. Bunday nuqsonlarni bartaraf etish uchun ketma-ket keluvchi unli tovushlarni talaffuzini diqqat bilan kuzatish zarur. Ketma-ket kelgan unlilarni to'g'ri talaffuz qilish uchun quyidagi mashqlar tavsiya etiladi.

Dastlab talaffuz mashqlari tavsiya qilinadi. Ayniqsa pastki jag'ni rivojlantirish bilan bog'liq mashqlarga e'tibor qaratish zarur.

8-mashq

A – O – U – E – O` – I unli tovushlarning har birini bir-biri bilan navbatma-navbat bog`lang. Ularni uch marta, qo`shilgan holda, bir nafasda, ulardan birortasini cho`zibroq talaffuz qiling:

aA – aA – aA	iA – iA – iA	uA – uA – uA
aO – aO – aO	eO – eO – eO	uO – uO – uO
aU – aU – aU	oU – oU – oU	uU – uU – uU
aE – aE – aE	oE – oE – oE	uE – uE – uE
aO` – aO` – aO`	oO` – oO` – oO`	uO` – uO` – uO`
aI – aI – aI	oI – oI – oI	uI – uI – uI

9-mashq

Ketma-ket kelgan unlilarga xohlagan undoshni qo`ying:

pAa – pAa – pAaT	PaA – PaA – PaAt
pAo – pAo – pAoT	paO – paO – paOt
pAu – pAu pAut	paU – paU – paUt

10-mashq

Ketma-ket unlilar ishtirok etgan so`zlarni talaffuz qiling. Ulardan birortasi talaffuzdan tushib qolmayotganligiga e'tibor bering:

jamo	tuyoq	beayov	maorif	shuur
soat	bo`yoq	ayamoq	muyulish	manfaat
saodat	sayoq	tuya	suyuqlik	matbaa
buyon	suyuq	buyurtma	boadab	mutaassib
suyak	quyuq	uyurma	noo`rin	mutassir
			taammul	taajub
			taassurot	

11-mashq

So`z birikmalarini talaffuz qiling. Birinchi so`z oxirida, ikkinchi so`z boshida kelayotgan unlilar talaffuziga e'tibor bering:

bora olmaydi	shu o'rinda
toza ovqat	ana anhor
sara anor	arava oldida
oshga aytmoq	Anora aytdi
rosa ishladi	Sora oldi

12-mashq

Quyidagi so'z va so'z birikmalarini talaffuz qiling:

boodob	bora oldi
noandisha	sira aytmadi
noumid	rosa aldadi
beadab	tuzoqqa aylandi
noaniq	sahna atrofi

13-mashq

So'zlarni talaffuz qiling. Bir yoki ikki unli tovushlarning aytilishiga e'tibor bering:

odob	boshqa	silliq
adab	narsa	bilq-bilq
matbaa	tirish	chillak
tushun	xamirturush	chilik
uchun	butun	satang
bilim	bitim	

Topshiriq

Yuqoridagi mashqlarda keltirilgan so'zlardan kichik hikoya tuzing.

E va YE unlilari talaffuzi

Nutqda ochiq «E» va yopiq «YE» unlilari uchraydi. Ularning talaffuzida bir qadar o`xshashlik sezilsa-da, lekin ma'lum darajada farq bor. Negaki ochiq «E» asosan so'zlarning boshida keladi, yopiq «E» esa so`z o`rtasida keladi. Yana bir jihat shundan iboratki, yopiq «E» yollashgan unlidir.

1-mashq

«E» va «YE» unlilari talaffuziga e'tibor bering:

eshik – beshik	er – yer
elak – terak	ep – yengil
esh – besh	en – yeng
etik – berkik	ega – yengmoq
emoq – bermoq	ergash – bermoq
emas – yetmas	ehson – behi
et – bet	Ehtiros – sehr
etak – yetmoq	ehtimol – mehr
el – bel	ehtiyoj – Behruz
ertak – yerlatmoq	Erkin – Texron

A va Ya unlilari talaffuzi

«A» unlisi bilan «Ya» unlisi talaffuzi bir-biriga yaqin, lekin «Ya» unlisi yolashtigan, talaffuz paytida aynan shu jihatni bilan farqlanadi.

2-mashq

«A» va «Ya» unlilari talaffuziga e’tibor bering:

asal – yashin	namoyish – yangi
arqon – yamin	xavf – yaltiroq
rashk – imyar	qavs – yassi
ancha – suyak	savol – uyat
toza – yarim	gavda – oyat
aka – yana	mavsum – buyan
adab – yashin	navbat – jiyak
Akrom – Yamin	navo – samimiyat
oshna – suya	gavhar – kayfiyat
tashla – yarq	mavjudot – moyat
arrala – yarqiroq	avval – tuya
ata – yatim	avlod – biya
saodat – yalla	vatan – g`oyat
bahor – uyan	vaqt – bag`oyat
anor – yalov	vafo – nihoyat
zamon – yaloq	vabo – soniya
palov – yaproq	vakil – yaxlit
zamon – yag`ir	vakolat – ya’ni
tamom – yamoq	

O va Yo unlilari talaffuzi

«O» va «Yo» unlilari ham yuqoridagilar singari talaffuz jihatidan o’xshash, yollashgani bilan farqlanuvchi unlilardir.

1-mashq

«O» va «Yo» unlilarni talaffuz qiling:

olma – yorug`	ozoda – diydiyo
ortiq – yondosh	olam – yot
oziq – yozmoq	olim – yosh
yarog` – sayoq	mahorat – yol
quroq – bo`yoq	muloqot – yolli
butoq – oyoq	muhokama – yodgor
bobo – ayoz	obid – yomg`ir
momo – sayoz	ob-havo – ko`z yoshi
ma’no – to`tiyo	obod – sayod
havo – behrayo	ozod – bunyod
bor – alyor	savod – yod
oq – yoq	odil – yolovchi
oz – yoz	to`qson – yodlash
tok – yoki	sakson – yoshulli
lola – xayol	

U va Yu unlilari talaffuzi

«U» va «Yu» unlilari talaffuzi ham ikkinchi unlining yollashganligi bilan farqlanadi.

1-mashq

So`zlar talaffuzi «U» va «Yu» unlilari talaffuziga e’tibor bering:

tut – yut	uvol – yugan
but – buyuk	uyatchang – yubormoq
sut – yuk	ko`zgu – yutum
ulug` – yugan	uyqu – yurt
bulut – suyuk	qayg`u – yult
tuzuk – yurak	shuur – iyun
chuchuk – yuzma-yuz	zuluk – iyul
uy – yur	butun – Ayub

un – yun	turg`un – yulian
kub – yubon	uzum – yum
kun – yuvish	bulut – yum-yum
tun – tuyuq	usul – yung
bur – buyuk	mushuk – yungli
tur – suyuq	qunduz – yuganchi
dur – yulduz	nuql – yuz
buzoq – buyum	unut – yuzlab
buloq – yunon	kumush – yuzma-yuz
Buxoro – yuksak	tushun – yukunmoq

UNDOSHLARNI SO'ZLAR O'RTASI VA OXIRIDA JARANGLI VA JARANGSIZ TALAFFUZ ETILISHI

Nutqda undoshlarni noto`g`ri jarangli va jarangsiz qo'llash bilan bog`liq nuqsonlar ko`p uchraydi. Ular ko`proq orfoepiya me'yorlarini bilmaslik va so`zni qanday yozilgan bo`lsa, shu taxlitda talaffuz qilishga intilish bilan bog`liqdir.

Gap shundaki, bir-biriga o`xshash tovushlar ikkinchi tovushning xususiyatiga qarab (jarangli yoki jarangsiz) o`zgarishga uchraydi va talaba ana shu o`zgarish asosida talaffuz qilish zarur bo`ladi.

Undosh tovushlarning talaffuz xususiyatlari quyidagilarda ko`rinadi:

«P», «B» tovushlari lablardan iborat to`sinq orqali havo oqimini tashqariga chiqish hisobiga hosil bo`ladi. Agar biz lablarimizni yumib, so`ngra nafas chiqarayotganda ularni birdan ochib yuborsak «P» tovushi hosil bo`ladi, shunda ovoz ishtirok etsa «B» hosil bo`ladi.

«F», «V» tovushlari yuqori tishlar pastki labga tegib, ularning orasidan havo o`tganda «F» (ovozi bilan «V») hosil bo`ladi.

«F» tovushida havo oqimi pastki lab va yuqori tishlar orasidan turtib chiqariladi, yuqori lablar va burunga ham tegadi.

«V» tovushida pastki lab yuqori tishlarga ozroq tegib turadi, ularning orasidan havo tebranish hosil qilib o`tadi. Odatda «P» va «B» undoshlarini talaffuz qilishda labning to`la imkoniyat bilan ishlay olmasligi xatolikka olib keladi: talaffuz chog`ida havo to`sinqi-labni engib o`ta olmaydi, ularning orasidan o`tib chaynalgan tovush hosil qiladi. Bu holatda nafas ham noto`g`ri taqsimlanadi. Bunda havo oqimi

oldinga chiqish o`rniga lunjga tushib qoladi va yuqori tishlar bilan yuqori lablar o`rtasidagi oraliqqa tushib qoladi.

«V» va «F» undoshlari talaffuzdagi nuqsonlar lablarning faol ishlamasligi bilan bog`liq. Agar pastki lab pastki tishlarga yopishib turmasa va yuqori tishlarga tegib turmasa, chiqayotgan havo oqimi lablar orasidan to`sinqa uchramasdan chiqib ketib qoladi. Bu holatda nafas to`g`riga chiqishning o`rniga yuqori va pastda lablar va tishlar orasida taqsimlanib qoladi.

Yuqori labning qimirlamasligi oqibatida boshqa nuqsonlar kelib chiqadi. Bunday nuqsonlarni

K – G, T – D, S – Z, Sh – J

tovushlarining talaffuzida uchratish mumkin.

Talaffuz mashqidan ishni boshlang. Ayniqlsa lab mushaklarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlarga e'tibor bering.

1-mashq

Tovush birikmalarini talaffuz qiling. «P», «B», «V», «F» tovushlarini aniq talaffuz qilinishiga e'tibor bering:

pi – pa – po – po` – pu
bi – ba – bo – bo` – bu
vi – va – vo – vo` – vu
fi – fa – fo – fo` – fi
pib – pab – pob – po`b – pub
bip – bap – bop – bo`p – bup
pi – pi – pi – b
bi – bi – bi – p
pri – pra – pro – pro` – pru
mfi – mfa – mfo – mfo` – mfu
vi – vaf – vof – vo`f – vuf
fiv – fav – fov – fo`v – fuv
fri – fra – fro – fro` – fru

Farhod Farg`onaga safda bordi.

Faqat fonus favvoraga tushdi.

Furqat Farhodni fabrikaga yubordi.

Vodiya Vali vagonda ketdi.
Vasila vaqtini kitob varaqlab o'tkazdi.
Vaqtı-vaqtı bilan avval-avvalni eslang.

2-mashq

Turli talaffuzdagi unlilar bilan birikib kelgan undosh tovushlarni talaffuz qiling. Bo`g`inlardagi cho`ziq unlilarni almashtiring:

vififli – fivivli
vefefle – fevevle
vafafla – favavla
vofoflo – fovovlo
vo`fo`flo` – fo`vo`vlo`
vufuflu – fuvuvlu
vdifli – ftivli
vdefle – ftevle
vdafla – ftavla
vdoflo – ftovlo
vdo`flo` – fto`vlo`
vduflu – ftuvlu
ptivivif – ptevevef
ptavavaf – ptovovof
pto`vo`vo`f – ptuvuvuf
tuf – puf – suf – buf fuflama
uv – suv – g`uv – guv guvlama
tof – pof – sof – bof boflama
ov – sov g`ov – gov govlama

3-mashq

So`zlarni talaffuz qiling. «P» va «B», «K» va «G» tovushlari talaffuziga e'tibor bering:

pana – badan	ko`cha – go`ja
pir – bir	katta – gard
patak – baland	kichkina – gina
peshona – beshik	keng – gerb
piyola – bilan	kitob – ilos

picha – bachcha	ko`ngil – go`l
par – bar	qulmoq – gul
past – baland	kon – goho

4-mashq

So`zlar juftligini talaffuz qiling. «V» va «F» tovushlari talaffuziga e'tibor bering:

visol – fil	suv – juft
vatan – fard	of – insof
voqea – fojea	bedov – isrof
vaqt – fan	qo`shuv – tavof
vasl – faqir	jo`va – ko`fa
vino – fidokor	Vali – faqat
uvat – ulfat	uvvos – suv
zavod – safar	kuvacha futbol

5-mashq

So`zlarni talaffuz qiling. «V» harfi o`rniga «F» tovushi talaffuz qilinayotganligiga e'tibor bering:

ov – sof	suv – uf
dov – uf	guv – tuf
yov – suv	bayov – kuf
Sobirov – tavof	ayov – fuf
beodov – insof	qo`yuv – puf

6-mashq

Yonma-yon undoshli so`zlarni talaffuz qiling. Har bir tovushni aniq talaffuz qilib, har bir so`zni 3 martadan takrorlang:

Kavkaz	futbol
suhbat	fabrika
manba	badtar
shanba	sudxo`r
fasl	marjon

ulfat	majlis
juft	plash
insof	maktab

7-mashq

So'z oxirida jarangli undoshni jarangsizlashuviga e'tibor bering.
Har bir so'zni bir necha marta takrorlang, tovushlarni aniq talaffuz qiling:

soz	yuz	tartib
kitob	dod	maktab
hisob	beburd	sabab
ov	tund	yuzlab
birov	sud	prorab

Topshiriq

So'zlarni talaffuz qilin. «VCh» ni «FCh» qabilida talaffuz qilinishiga e'tibor bering:

sovchi	beruvchi
suvchi	oluvchi
o`qituvchi	turuvchi
sevuvchi	jilovchi
uyuvchi	yilovchi
tushovchi	yig`uvchi
quyuvchi	yo`lovchi
suyuvchi	kiyuvchi

So'z birikmalarini talaffuz qiling. Jarangli undoshlarni so'z oxirida jarangsizlashuviga e'tibor bering:

qand eridi	tartib o`rnatildi
fond yaxshi yordam ko`rsatdi	javob berildi
kitob o`qildi	sabab topildi
dardni engdi	yuzlab odam
janob vazir	olib bormoq
savod chiqarmoq	ozod bo`lmoq

Gaplarni to'g'ri talaffuz qiling. Undosh tovushlar talaffuziga e'tibor bering:

1. Birov kelganga o`xshaydi;
 2. Bemor dardni engdi;
 3. Sobir piyolaga qand soldi;
 4. Savod chiqarish uchun maktabga bordi;
 5. Sahnaga shitob bilan chiqib keldi;
 6. Sevib sevilib yurganga nima etsin;
 7. Uzum uzib, shinni suzib zavqini totganmisiz;
 8. Xirmon uyub, mehnat zavqin surgan;
 9. Ish buyurmoq.

Yuqoridagi mashqlarda berilgan so`zlardan foydalanib hikoya va topshiriq matnnini tuzing.

«Ch» va «Sh» undoshlari talaffuziga e'tibor bering.

Dastlab «Ch», «Sh» tovushlarini to`g`ri talaffuz qilinayotganini tekshirib ko`ramiz.

«Ch» tovushli «T» va «Sh» tovushni ketma-ket lahzada talaffuz qilinishdan hosil bo`ladi. Tilning old qismi yuqori alveolaga yopishadi va darhol undan uziladi. Tovush qisqa va tez talaffuz qilinadi.

«Sh» tovushi talaffuzida og'iz burchaklari jipslashadi. Til uchi pastga qaragan. Tilning chetlari yuqori oziq tishlariga tegadi. Til taranglashadi. Tovush qisqa talaffuz qilinadi.

«Ch» va «Sh» tovushlarini talaffuz qilishda quyidagi nuqsonlar uchrashi mumkin:

«Ch» tovushli «T» va «Sh» tovushlariga ajralib qisqa emas, cho`ziq talaffuz qilinish mumkin. Bunda til uchi yuqori alveoladan ajralmay, unda sirpanadi.

«Sh» tovushini talaffuz qilishdagi nuqson tilning noto`g`ri joylashuvi va uning etarli darajada faol emasligidan kelib chiqadi.

1-mashq

Quyidagi tovushlar birikmasini talaffuz qiling, «Ch», «Sh» tovushlari talaffuziga e'tibor bering:

chi – che – cha – cho – chu – chi
pchi – pche – pcha – pcho – pchu – pchi
rchi – rche – rcha – rcho – rchu – rchi
vchi – vche – vcha – vcho – vchu – vchi
chik – chek – chak – chok – chuk – chik
shi – she – sha – sho – shu – shi
chi – shi – ji – shi, che – je – je – she ...
vish – pish, vshe – pshe, vsha – psha, vsho – psho, vshu – pshu

2-mashq

So`zlarni o`qing. «Ch», «Sh» undoshlarining talaffuziga e'tibor bering:

chorak – shoda	ravoch – qosh
chinni – shinni	yog`och – bosh
chana – shona	tavg`och – talosh
chevar – sherdor	yalang`och – yalanto`sh
chuqur – shunqor	chanoq – shovqin
cho`zma – sho`ba	chaqmoq – sharaf
chorsu – shohona	chanqoq – sha'n
chiroyli – shibirg`oni	choriq – shona
chaqar – shahar	chiziq – shirin
ochiq – oshiq	chegara – sheva
och – osh	chaspak – shaftoli

ichki – ishq	chehra sherik
chanoq – shanba	cho`zma – sho`rva
chit – shit	cho`liq – sho`r
	chama – shama

Fe'llardan hosil qilingan sifatdoshlarda «Ch», «Sh» tovushlaridan keyin kelgan jarangli «G» undoshi jarangsizlashadi:

ochgan	toshga
qochgan	aralashgan
sochgan	toshgan
archgan	tashlangan
burchga	tushgan
murchga	boshta

3-mashq

«A» unlisi oldida keladigan «Ch» va «Sh» undoshlar talaffuzini solishtiring:

charchamoq	sharshara
chama	shama
charos	sharros
charx	shaxs
chaxor	shahar
yulduzcha	shosha
chiroqcha	osha
bog`cha	tosha

4-mashq

So`z va so`z birikmalarini talaffuz qiling. «Ch», «Sh» undoshlarini talaffuziga e'tibor bering. So`zlarni bir necha marta takrorlash mumkin:

charchamoq	ishlab charchash
chalmoq	chala boshamoq
shaftoli	anjir shaftoli
chiya bo`ri	qamishzor oralab
choy quymoq	shod bo`lmoq
chaqchaqlashmoq	shaq-shaq etmoq

changi chaqmoq	shoshib qolmoq
chetdan chaqirmoq	shevada gapirmoq
charchog`i chiqmoq	shafqat qilmoq
cho`lga chorlamoq	sho`r bosmoq
cho`pon tayog`i	sho`x o`ynamoq
chinni choynak	shisha idish
chorlov chaqirig`i	shona tugmoq

AYRIM UNDOSH TOVUSHLARNING KETMA-KETLIGI

Ayrim undosh tovushlarning ketma-ketligi talaffuz qilinganda oraliq unli tovush paydo bo`lishi mumkin. Undosh tovushlarni aniq talaffuz qilishda bu holat tabiiy hisoblanadi. Lekin yozuvda favqulodda paydo bo`lgan unlilar aks ettirilmaydi.

1-mashq

Ketma-ket undoshlarning talaffuziga e'tibor bering. Oraliq qisqa unlilarning paydo bo`lishini kuzating:

oshna	adl	sumbul
poshna	marjon	menga
pochta	drenaj	shanba
do`s	majlis	tanga
dard	tanbal	fard

2-mashq

So`zlarni talaffuz qiling. Undoshlar juftligi talaffuziga alohida e'tibor bering:

uchta	tanbal	tirband
beshta	sunbul	band
oshda	ko`ngan	barg
sochda	to`nka	ko`rk
kuchli	chanqoq	bo`rk
uchli	to`nga	turk
pishloq	dengiz	mulk

manba	menga	tark
shanba	sovungar	ko`shk
tanba	yonbosh	mushk
tanbeh	jonboz	anbar

3-mashq

So`z birikmalarini talaffuz qiling. Ketma-ket kelgan undoshlar talaffuziga e'tibor bering:

uchta boqcha	choynakka qopqoq
uchli pichoqcha	to`shakka kirmoq
tushga kirmoq	sevinch barq urmoq
sochga tushmoq	dard kuchaymoq
sevinch oshmoq	sevgi dardi
chirchiq shahri	shanba kungi
sovg`a dardi	manba ko`rish
tikka turdi	tanbeh eshitish
oshga tushdi	tanballik qilmoq
turqi sovuq	sunbula kirdi
birga yurmoq	yonboshga ag`darilmoq
sochni o`rmoq	vatanparvar elga
qoshga qo`ymoq	aylanma harakat
boshga tushmoq	yonma-yon ko`cha

Topshiriq

Maxsus tuzilgan gaplarni o`qing. «Ch» undoshi (qisqa) talaffuziga e'tibor bering:

1. Choyga chog`roq shama tushgan chaması.
2. Chamamda choyshab chokidan chirigan.
3. Chapdast Chori Chorboqda charchab uxlab qolibdi.
4. Chiroyli qiz chinniga choy quyib ichyapti.
5. Chamasi chamadon chog`roq chiqar.
6. Charos charchab chehrasi tundlashdi.
7. Chetga chiqib chorborg`ni chamladi.
8. Chiq deganda chiqmagan, chiqsa chiqar jon bilan.

9. Chegarada charchamay chor-atrofni kuzatar.
10. Chor atrofdan chehrasi chiroyli choriyorlar to`plandi.
11. Chiziqdan chetga chiqmay chamalab chizdi.
12. Chala chizilgan chiziqn ni chetlab o`tdi.
13. Chanada pichan tashidi.
14. Chori chaproq chorrahadan shosha-pisha o`tdi.
15. Chivin chimillatib chaqib chiqdi.
16. Chorsuga chet choydan xarid qilish uchun bordi.
17. Chivin chaqqan chakakni ko`k choy bilan chaydi.
18. Chorraxadan chopib chiqdi.
19. Chol chor atrofga chamalab qaradi.
20. Chiq-chiq, chumchuq, chirq-chirq chug`urchuq chirqilladi.
21. Bizning chegarachilarimiz sizning chegarachilaringizdan emas.
22. Chumchiq chiqdi chinorga, chirilladi chir, chir, chir.
Uni ko`rgan chumoli chirqiradi chur, chur, chur.

Yuqoridagilardan foydalanib hikoya tuzing.

Sh, J va S undoshlari ketma-ketligining talaffuzi xususiyatlari

O`zbek tilida «Sh», «J» undoshlari o`rta talaffuz undoshlari hisoblanadi.

«Sh» va «J» tovushlarini talaffuz qilishda ikki xildagi xatoga yo`l qo`yilishi mumkin.

Birinchi holatda – tilning noto`g`ri joylashuvi (til uchi tanlayga ko`tarilmagan, tilning chetlari yon tishlarga tegib turmaydi). Bu holatda havo oqimi oldinga ketib qoladi va ortiqcha tovush, ba`zan chiyillash hosil bo`ladi.

Ikkinchı holat – tilning noto`g`ri joylashuvi (yassi yoki past holati), bu chiqayotgan havoni noto`g`ri yo`naltirishga sabab bo`ladi. Bu holatda havo tishlarga qarab yo`nalmay, tishlar va yuqori lab o`rtasidagi oraliqni to`latadi. Natijada shipillagan tovush chiqadi.

«Sh» va «J» tovushlarini to`g`ri talaffuzi.

«Sh» tovushi – til «hovuzcha» shaklida. Jag`lar tekis. Lablar dumaloqlangan. Tilning chetlari biroz ko`tarilgan, yuqori oziq tishlarga mahkam yopishadi, havoni o`tkazib yubormaydi. Havo oqimi oldinga yo`naltirilgan.

«J» tovushi – nutq a`zolari holati yuqoridagidek, ammo til biroz ko`tariladi. Til havo oqimi ta`sirida engil titraydi. Havo oqimi tanglayga yo`nalgan.

Talaffuz mashqlari yordamida bu tovushlarni to`g`rilash ustida ishlanadi. Til mushaklarini faollashtirish uchun mashqlarga alohida e'tibor beriladi.

1-mashq

Undosh tovushlarni unlilar bilan birga talaffuz qiling. «Sh» va «J» tovushlarini aniq aytilishiga e'tibor bering:

rshi – rshe – rsha – rsho – rsho` – rshu
shri – shre – shra – shro – shro` – shru
shish – shesh – shash – shosh – shush – sho`sh
ish esh – ash – osh – ush – o`sh
ji – je – ja – jo – jo` – ju
rji – rje – rja – rjo – rjo` – rju
chi – shi – ji
shij – shej – shaj – shoj – shuj – shij
jish – jesh – jash – josh – jo`sh – jush
k-g – shi, k-g – she, k-g – sha, k-g – sho, k-g – sho`, k-g – shu

2-mashq

So`zlar va so`z birikmalaridagi «Sh» va «J» tovushlarining talaffuziga e'tibor qiling.

So`z oxiri va so`z birikmalar orasida kelgan «J» tovushining jarangsizlashuvini kuzating:

jon	bagaj	boj to`lamoq
jurnal	shjda	xiroj yig`moq
jovon	ajdar	saj baxri
jyuri	mujda	joyga joylashmoq
joylashmoq	sapeda	javobga shaylanmoq
jahon	haj	jazo choralar
jo`ra	ijtimoiy	sajda qilmoq
marjon majlis	juz`iy	haj safari
rivoj	jomiy	hozirjavob bo`lmoq
toj	jo`mrak	oltin toj
tiraj	saj	jalb qilmoq
		jyuri a`zosi

«SSh» va «ZSh» undoshlari juftligi so`zlarda uzun (ShSh) tarzida talaffuz qilinadi.
 «ZJ» va «JJ» undoshlari uzun (JJ) tarzida talaffuz etiladi.

1-mashq

So`zlardagi va so`z birikmalaridagi undoshlar juftligini aniq talaffuz qiling:

1. So`z shahar hokimiga berildi.
2. Sharxlovchi so`z sharxi bilan shug`ullandi.
3. O`lchov asbobi bilan chiqib dengiz chamalandi.

2-mashq

Tovushlar birikmasini talaffuz qiling. «Sh» va «J» tovushlarini aniq talaffuz qilinishiga e'tibor bering. Bu mashq «Sh», «J» tovushlarini to`g`ri talaffuz qilish uchun talaffuz a'zolariga yordam:

TO`SHLO` – TASHLA – TOSHLO – TUSHLU
 TO`SHTO` – TASHTA – TOSHTO – TUSHTU
 LO`JDO` – LAJDA – LOJDO – LUJDU
 MO`JDO` – MAJDA – MOJDO – MUJDU
 NO`SHNO` – NASHNA – NOSHNO – NUSHNU
 TO`JNO` – TAJNA – TOJNO – TUJNU

So`zlarni talaffuz qiling. «Sh», «J» tovushlarini to`g`ri talaffuziga e'tibor bering (olinma so`zlarda qattiqroq talaffuz qilinadi):

vajohat	joziba	majlis
Sojida	jihat	rivoj
ajina	jinday	toj
ajoyib	jizza	javob
garaj	jo`ja	Jonson
bagaj	bojxona	Jovonni
jurnal	johon	Jekson
jiyda	juda	tiraj
bajarmoq	marjon	mujda
		ijda

Topshiriq

Matnni diqqat bilan o`qing, dastlab asta, so`ngra tezroq o`qishga harakat qiling:

1. Jala quygan joydan jilib ketdi.
2. Jajji jo`jalar janubga qarab qanot qoqdi.
3. Jizzaxlik Jo`rovoy jaxlini jilovladi.
4. Jamol jizzani jiydaga qo`shib edi.
5. Jahon jamoasi jondek jam.
6. Jizza jizillab ajoyib xid chiqardi.
7. Joningizga jon bo`lay jonomga darmonim otam.
8. Jala jaxdiga olib quydi.
9. Jajji Jahongir juda jaxldor.
10. Zanjir, sarjin, anjir.
11. Jamila jiydani joyiga joyladi.
12. Jahon to`la ovozlar.
13. Jaranglar mening sozim.
14. Jahongir, Javlon, Jo`ralar jo`rovoz.
15. Jonginam, qilma g`avg`o,
juft sabzi senga sovg`a.
16. Jasur qo`shtiq bizga hamdam.
17. Har bir qo`ngan joyimizda.

S, Z undoshlari talaffuzi

Yuqoridagi undosh tovushlarning talaffuzi bilan bog`liq bir qator nuqsonlar uchraydi.

Odatda «S», «Z» vishildoq tovushlarini talaffuz qilish chog`ida nuqsonlar til uchini noto`g`ri joylashuvi oqibatida kelib chiqadi.

«S» va «Z» tovushlarini to`g`ri talaffuz qilish uchun til uchi pastki tishlarining ostiga borib taqaladi. Agar sal ko`tarilib, tishlar orasida bo`lib qolsa nafasga yana xushtakka o`xshash vishillash qo`shiladi. Agar til uchi tishlarga tegib qolsa, noo`xshov tovush paydo bo`ladi.

«S», «Z» undosh tovushlarining aniq talaffuzini esga olamiz. «S», «Z» tovushlari – «S» talaffuzida havo (va 3 talaffuzida ovoz) tanglayga ko`tarilgan tilning o`rta qismi va yuqori old tishlar orasidan o`tadi. Til uchi pastki tishlari tagiga tegib turadi.

1-variant:

Til uchi pastki tishlar tagiga tegib turadi, tilning old qismi yuqori tishlar va milkka yopishadi, so`ngra ulardan uzilib «S» holatiga keladi.

2-variant:

Til uchi yuqori tishlar tagidan darhol pastki tishlar tagiga o`tadi.

1-mashq

«I» va «E» tovushlari asta va birqalikda talaffuz qilinadi. Asta «I» tovushini talaffuz qilishdan boshlang, so`ngra ikki tovushdan iborat «E» unlisiga o`ting. «E» unlisini talaffuz qilganda pastki lab o`rtasida havo borligini xis eting. Bu holatni his qilgandan keyingina «S» talaffuziga o`ting. «S»ga juda yopishib olmang:

si – se – sa – so – so` – su
is – es – as – os – o`s – us
sis – ses – sas – sos – so`s – sus
psi – pse – psa – pso – pso` – psu
rsi – rse – rsa – rso – rso` – rsu
zi – ze – za – zo – zo` – zu
iz – ez – az – oz – o`z – uz
ziz – zez – zaz – zoz – zo`z – zuz
siz – sez – saz – soz – so`z – suz
zis – zes – zas – zos – zo`s – zus

sti – ste – sta – sto – sto` – stu
 ks – ks – ks – ks
 ksi – kse – ksa – kso – kso` – ksu
 ps – ps – ps – ps
 psi – pse – psa – pso` – psu
 ts – ts – ts – ts
 tsi – tse – tsa – tso – tso` – tsu

2-mashq

So`zlarni talaffuz qiling. «S» undoshini so`z boshi, o`rtasi, oxirida talaffuz qilinishiga e'tibor bering:

suv	tasma	misra
sut	raso	savod
soch	sun'iy	sub'ekt
so'l	san'at	hasad
so`ng	sur'at	Hasan
sir	bil'aks	diaskop
so`z	mas'ul	kassa
sog`	samo	kongress
sut	salom	do`s
so`m	subut	salom
sust	olmos	palos
bosma	mos	
osma	sabot	

3-mashq

So`zlarni talaffuz qiling. «Z» undoshining talaffuziga e'tibor bering. So`z oxirida «Z» tovushi jarangsizlashuvini yodda tuting:

zo`r	toza	soz
zabon	bo`za	so`z
zanjur	qizil	bo`z
zar	siz	ovoz
zira	biz	dorboz
zirk	qiz	sarboz

zuxro	o'z	tez bez
zirak	chiziq	yuzsiz
zafar	buzuq	sizu biz
zuxur	o'zak	tiz chiz
zabarjad	iz	noz soz
zina	yuz	
zo'raki	oz	
zona	azon	

4-mashq

«S» – «Z», «S» – «Sh», «Z» – «J» undoshlari talaffuzini qiyoslang:

sir – zar	sana – sha'na	zora – jodi
soat – ziroat	suzma – shu'la	zo'r – jo'r
sol – zo'r	saryog` – shavla	zuhra – juda
sil – zir	son – shon	zar – jar
so'z – zo`ldir	so'na – sho`x	zarra – jarroh
sara – zarar	so'z sho'r	zira – jihat
sinoat – zikr	suhbat shuhrat	zabar – Jabbor

5-mashq

So`zlarni talaffuz qiling. «S», «Z» vishildiq undoshlarining talaffuz qilinishini kuzating:

sahna	zaxlik
siyoh	ziyofat
sevgi	zehn
son	zora
sina	zina
saxiy	zoxir
so'zamol	zo'rlik
so`qir	zo'ravon

6-mashq

Tez aytishlar va matnlarni asta o`qing. Vishildoq tovushlarni aniq talaffuz qilinishiga e'tibor bering:

1. Sobir sariq sabzi sepdi.
2. Zargar Zoirmi, Zoir zargarmi?
3. Sevgi safsatani sevmaydi.
4. Siz atagan har bir joy.
Bitta bo`ston bo`ladi.
Hammagini qo`sangiz
O`zbekiston bo`ladi.
5. Saodat soatini soatsozga sozlatdi.
6. Sovuqda tustovuq sovuq qotdi.
7. Boqi boqqa, Soqi toqqa boradi.

Topshiriq

Gaplarni o`qing. Vishildoq tovushlarni aniq talaffuz qilinishiga e'tibor bering:

1. Salqin soyada sambit savlat to`kib turibdi.
2. Zardodon zada bo`ldi.
3. Gulsara gul saralab gul sanadi.
4. Tikuvchimas,
Bichuvchimas,
Ignasi ancha ekan.
5. Qo`lsiz, oyoqsiz eshik ochar.
6. Pishirsang osh bo`lar,
Pishirmsang qush bo`lar.
7. Izzat tilasang, ko`p dema
Sihat tilasang, ko`p ema.
8. Oz so`zla – soz so`zla,
9. O`zi yuzsiz, so`zi tuzsiz.
10. Ish seni engmasin,
Sen ishni eng.
11. Etti o`lchab bir kes.
12. Bir onadan yuz bola,
Yuzovi ham bo`z bola.

13. Xo`ppa semiz, bir tuki yo`q.
14. Sovuqda tustovuq sovuq qotdi.
15. Saodat soatini soatsozga sozlatdi.

Yuqoridagi mashqlarda keltirilgan so`zlar va gaplardan foydalanib hikoya tuzing.

«G», «K» undosh tovushlari talaffuzi.

Ko`pincha «G», «K» tovushlari noto`g`ri talaffuz qilinadi. Bu ko`proq rus tlining yoki ayrim shevalarning ta`siri bo`lishi mumkin.

«K», «G» «X» undosh tovushlari talaffuzzini ko`rib chiqamiz.

«K», «G» tovushlari – chiqarilayotgan havo oldinga qarab intiladi, tilning yopiq orqa qismi va yumshoq tanlay orasidagi to`sinqi «portlatib yuboradi». Nafas qisqa chiqariladi.

«G» tovushi o`zbek tilida portlash assosida hosil bo`ladi, shuning uchun «G» tovushni sirg`aluvchi talaffuzi noto`g`ri, yo`qotilishi kerak bo`lgan nutqiy xato hisoblanadi.

1-mashq

Tovushlar birikmasini talaffuz qiling. «K», «G» tovushlarini aniq talaffuz qilinishiga e'tibor bering:

ki – gi, ke – ge, ka – ga,
ko – go , ko` – go`, ku – gu,

kig – keg – kag – kog – ko`g – kug
 gik – gek – gak – gok – go`k – guk
 PTKI – PTKE – PTKA – PTKO – PTKO` – PTKU
 KT – KT – KT ...
 gb – gb – gb ...
 KPTI – KPTE – KPTA – KPTO – KPTO` – KPTU
 gbdi – gbde – gbda – gbdo – gbdo` – gbdu

2-mashq

Talaffuz mashqlariga quyidagi birikmalarni qo`sning:

gra – kra	gla – kla	gna – kna
gro – kro	glo – klo	gno – kno
gal – kal	gam – kam	gad – kad
gol – kol	gom – kom	gav – kav – kash – kash
bagr – bakr	agol – akol	god – kod – gov – kov – kosh – kosh
bogr – bokr	ogol – okol	zgla – sxla
		gagar – xaxar
		zglo – sxlo
		gogr – xoxor

3-mashq

So`zlarni talaffuz qiling va so`z boshida «G», «K», «X» tovushlar talaffuzini chog`ishtiring:

gap – xap	gasht – xasht	ko`z – xo`l
gijda – xijja	griftor – xiromon	kuz – xud
gul – xid	gunoh – xosiyat	kun – xun
gil – xina	go`zal – xo`roz	kor – xor
gol – xoli	gulzor – hurriyat	kir – xira
go`l – xo`l	gard – xabar	kar – xar
gina – xira	gashtak – xasis	ko`n – xo`r
gal – xari	guvoh – xuri	ko`l – xira
	gulzor – xurmo	ket – xech,

4-mashq

So`z va so`z birikmalarini talaffuz qiling, ulardagi «G» undoshining so`z boshida talaffuziga e'tibor bering. So`zlarni bir necha bor takrorlang:

Gal	Gasht
Gul	Gar
Gulzor	Go`zal
Gil	Gazak
Go`l	Go`dak
Gaz	Gunoh
Goh	Gunchak
Gung	Gard
Gips	Gurvak

5-mashq

So`zlarni talaffuz qiling, so`z o`rtasida kelgan «G» tovushning to`g`ri talaffuzini tekshiring. So`zlarni ko`proq takrorlang va talaffuzni sekinroq usulda sayqallang:

tagida	tugun	yagona
jigar	bugun	begona
magar	ugina	taglik
agar	bugina	o`git
tagi	shugina	so`gal
tush	dugona	tugal

«G» undoshi so`z oxirida jarangsiz «K» qabilida talaffuz qilinadi.

6-mashq

«G» tovushni so`z oxirida «K» tarzida talaffuzqilinishiga e'tibor bering. Tovushlar birikmasini bir necha bor qaytaring:

dag – dak	lag – lak	vag – vak	rag – rak
dog – dok	log – lok	vog – vok	rog – rok
dug – duk	lug – luk	vug – vuk	rug – ruk

Topshiriq

Quyidagi so'zlarni egalik qo'shimcha bilan talaffuz qiling:

1. Tagi butun chelak.
 2. Yuragi ishqqa to`la.
 3. Tag-tugi bilan qo`porib oldi.

Gaplarni o`qing:

1. Go`zal gazni buradi.
 2. Gap gali menga keldi.
 3. To`rga o`tirib hech kimga gal bermay gap gapirdi.
 4. Gap bilan shoshma,
Ish bilan shosh.
 5. Yomonning yuzi qursin,
Gapirgan gapi qursin.
 6. Gulsara gul saralab gul sanadi.
 7. Gul, gul faqat o`zing gul.
 8. Gul, gul, gul, qoshu ko`zing gul.
 9. Gap «G» tovushi haqida ketar ekan galni ma'noli gapga berish

«G» tovushi ishtirokida hikoya tuzing.

Q va G` undoshlari talaffuzi

Q – chuqur til orqa, portlovchi undosh, jarangsiz, til uchi pastki tishlarga borib tarqaladi, havo tilning ustki qismi va tanglay orasidan chiqadi.

G` – chuqur til orqa, portlovchi undosh, jarangli, til holati yuqoridagiday.

1-mashq

«Q» va «G» tovushlarini talaffuz qiling, talaffuzni qayta-qayta takrorlang:

Qa – g`a ...
Qo – g`o...
Qi – g`i
Qo` – g`o`
Qu – g`u

2-mashq

«Q» va «G» tovushlari ishtirokidagi so`zlarni talaffuz qiling:

Qarg`a – g`arg`ara	Qadr – g`arb
Qor – g`or	Qolmoq – g`olib
Qish – g`isht	Qidirmoq – g`ildirak
Qo`l – g`o`r	Baqqa – bag`baqa
Qul – g`ulg`ula	Haqiqiy – dag`dag`a
Oq – og`	Oqlik – sog`lik
Aql – ag`yor	Baliq – cho`g`
O`q – so`g`d	Laqqa – tog`a
Uqa – jig`a	Soqqa – jig`a
Viqor – g`oz	Taqir – bag`ir

Topshiriq

«Q» va «G» undoshlari ishtirokidagi gaplarni o`qing, ularning talaffuziga e'tibor bering:

1. G`aflat uyqusidan erni uyg`otgan.

2. Qor bosgan oq-oppoq dalada ko`rdim,
Qimir etmay turar to`p qora tulpor,
Qish obdon bekitgan cho`ng qora toshning,
Besh-olti joyida erigandek qor.
3. G`arba quyosh g`arq bo`layotgandek.
4. Qumri qirdan qiyalab uchib o`tdi.
5. G`ani g`isht qo`yishga shaylandi.
6. G`ir-g`ir g`arbdan esgan shaboda.
7. Qattiq qirg` ich qira-qira qirildi.
8. Qora qirni qo`g`atib, sara erni haydatib.
9. Qahraton qishning qilig`i qiziq chiqdi.

Qora qoshing, qalam qoshing,
Qiyiq qayrilma qoshing qiz,
Qilur qatlimga qasd qayrab,
Qilich qotil qarashing qiz,
Qafasda qalb qushin qiynab,
Qanot qoqmoqqa qo`ymaysan,
Qarab qo`ygil qiyo,
Qalbimni qizdirsin quyoshing qiz.

Ng tovushi talaffuzi xususiyatlari

Ng – undosh, burun tovushi, jarangli, til uchi pastki tishlarga jipslashadi, o`rtasi ko`tariladi, havoning bir qismi burundan chiqadi. «Ng» tovushi asosan so`z oxirida keladi.

1-mashq

So`zlarni talaffuz qiling, «ng» tovushiga so`ng e'tibor bering:

So`ng	To`xtang
Cho`ng	Boring
Tong	Keling
Ong	Kuling
Eng	Ishlang
Bering	Tering

Keng	Yuring
Bong	Chiqing
Teng	Iching

2-mashq

«Ng» tovushi ishtirokidagi so`zlarni qo`shimchalar bilan talaffuz qiling:

Tongi – tonggi
So`ngi – so`nggi

X va H undoshlari talaffuzi

X – chuqur til orqa tovushi, jarangsiz undosh, tilning old qismi pastki tishlarga borib tarqaladi, tanglay bilan tilning ustki qismi orasidan havo o`tish tufayli hosil bo`ladi, o`pkadan havo chiqayotganda tomoq qiriladi.

H – bo`g`iz undoshi, jarangsiz undosh tilning holati yuqoridagiday, lekin o`pkadan havo chiqayotganda tomoq qirilmaydi.

1-mashq

«X» va «H» undoshlarini talaffuz qiling, ularni farqlang, talaffuz mashqini bir necha bor takrorlang:

Xa – ha
Xo – ho
Xi – hi
Xe – he
Xo` – ho`
Xu – hu

2-mashq

«X» va «H» tovushlari ishtirok etgan so`zlar talaffuziga e`tibor bering, h ba`zan x tarzida talaffuz qilinishiga diqqat qiling:

Bahor – xodim	Hamiyat – xalal
Hamma – xazina	Hasrat – xayriya
Hodisa – xona	Havas – xayriyat

Harbiy – xazon	Harakat – xandon
Hosil – xoda	Habiba – Xosiyat
Muhabbat – xayol	Hasad – xarajat
Hamroh – xavf	Hasan – Xurshida
Isloh – xatm	Hikoya – xirom
Shahar – xato	Hikmat – Xusniya

«X» va «H» undoshlari ishtirokidagi gaplarni o`qing:

1. Kel bahor, kelgin bahor.
2. Qalblar bor hayotda kul bo`lgan cho`g`day.
3. Yolg`onchi dunyoni gumroh deganlar,
Xasdayin ezilar oyoq ostida.
4. Visol sehriga ilk bor sho`ng`igan,
Ikki qalbning baxti toldi yo`lini.
5. Gunohdir yashash bekinib,
O`tgan kun o`xshar xazonga.
6. Baxtim butun, armonim butun.

7. Ha, bugungi kulgularim,
Olisdagi baxtning soyasi.
8. Behis umr toqqa ham abas.
9. Hayolim dunyoga qonmay boqadi.
10. Hurlikning maskani tilsiz kechalar.
11. Bu xazonlar bahor faryodi.
12. Xazinsiz bahorni mangu kutar qish,
Har kishning tushiga bahor kiradi.

T va D tovushlari talaffuzi

Nutqda «T» va «D» tovushlari talaffuzida nuqsonlar uchrab turadi. Bunga o`zbek tilidagi shevalarda bu tovushlarni talaffuzidagi ayrim farqlar, rus tilida ularni qattiq yoki yumshoq talaffuz qilish sabab bo`ladi.

«T» va «D» tovushlarni aniq talaffuzi qoidalarini ko`rib chiqamiz.

«T», «D» tovushlari – til uchi yuqori tishlar tagiga tiraladi, so`ngra u erdan tez uziladi.

Til uchi mahkam va to`la yopishmagan paytda pastki tishlar orasida tor oralig` hosil bo`ladi. Bunda tilning uchi pastki tishlar tagiga tiraladi, tilning old qismi esa yuqori tishlarga tiraladi. «T», «D» tovushlariga «S», «Z» tovushlari qo`shilib qoladi. Bunday nuqsonni bartaraf etish uchun talaffuz treningi sifatida maxsus mashqlar tavsiya etiladi.

1-mashq

Tovushlar birikmasini asta talaffuz qiling. «T», «D» tovushlari tallafuziga e'tibor bering:

TI – TE – TA – TO – TO` – TU
Di – de – da – do – do` – du
Di – ti, de – te, da – ta, do – to, to` – to` – du – tu
Tri – tre – tra – tro – tro` – tru
Tid – ted – tad – tod – to`d – tud
Ti – ti – ti
Di – di – di

KPTI – KPTE – KPTA – KPTO – KPTO` – KPTU
PTKI – PTKE – PTKA – PTKO – PTKO` – PTKU

T – t – t – t – t – t – t ...
D – d – d – d – d – d – d ...
Tk – tk – tk – tk ...
Ta – ta – ta – ta – ta da – da – da – da – da
To – to – to – to – tot do – do – do – do – dot
Ta – da ta – da
To – do to – do
Ta – tat da – dat
To – tot do – dot

2-mashq

So`zlarni e'tibor bilan talaffuz qiling, so`zlar oxiridagi undoshga e'tibor bering.

Bod – bot
So`z – so`s
Sud – sut

3-mashq

So`z va so`z birikmalarini tallafuz qiling. «T» va «D» tovushlariga e'tibor bering:

sato – sado	ot – obod
tata – dada	ato – ozod
ota – oda	toat – savod
tala – dala	soat – zavod
otmoq – odil	tut – pud
atala –adolat	sut – sud
to'lqin – do`st	tit – did
tom – doim	tort – fard
tamom – dard	tot – dod

4-mashq

«T», «D» tovushlari tallafuzini mustahkamlash uchun gaplarni tallafuz qiling.

1. Toza havo, tanga davo.
2. Davrning dadasi dardiga davo topildi.
3. Tut, tutning tagida dud.
4. Bir tup tut, tutning tagida bir tup turup.
5. Tut turupni tutib turiptimi, turp tutni tutib turiptimi?
6. Shotursunning shotutini shitirlatgan shamol,
Sharifning shaftolisini shitirlatdi.
7. Tolib turupni tarozida tortib topshirdi.
8. Tez aytishni tez-tez ayt.
9. Dardga davo ko`k choy.
10. Daroz Davron darsga kech qoldi.
11. Dardini dasturxon qilib yozdi.
12. Turg`un tog`ning tagida taraktorini tirillatib turibdi.
13. Dod etarman, dod dastingdan.

14. Totli turmush tursunga totimadi.
15. Dardimga qulok sol ey dardi bedavo.

Topshiriq

- Maxsus tuzilgan gaplarni o`qing:
1. Tolib to`tini to`rga soldi.
 2. To`qsonta tosh tashqariga tashladi.
 3. Dorboz dorda sakrab – sakrab o`ynadi.
 4. Devordan daraxt ko`chaga salqin soladi.
 5. Tengsiz dostonchi Doston dunyoga doston bo`ldi.
 6. Dard chekkan tabib andin davosini so`rang.
 7. Dalayu dashta doston bo`ldi.
 8. Tubsiz dengiz dedingizmi, dengiz tengsiz dedingizmi?
 9. O`rtoqjon Turg`un,
Men bilan yurgin.
Bizning bog`chani,
Bir borib ko`rgin.
Turli o`qinchoq,
Arg`imchoq bizda.
Kelamiz suzar,
Dengizchamizda.
Miltig`imizning,
O`qlari olmos.
Chegaramizga,
Dushman yo`lolmas.
 10. Toza havo tanga davo.

R va L undoshlari

O`zbek tilida «R» va «L» tovushlari bir-biriga yaqin turadi, ba`zan ular almashtirib talaffuz qilinadi. Bu nuqson nutqning shoshqaloqligi, talaffuz a`zolarining yaxshi rivojlanmaganligi, ba`zan tovushlarning o`zini noto`g`ri talaffuz qilinishi bilan bog`liq.

«R» va «L» undoshlarining talaffuz xususiyatlarini ko`rib chiqamiz.

L – til uchi yuqori tishlarning ichki tomoniga tiraladi. Tovush til yonlaridan va yuqori oziq tishlar orasidan o`tadi.

R – til uchi tanglayga ko`tariladi, lekin unga yopishmaydi. Til chetlari yuqori tishlarga tegib turadi. Til uchi chiqayotgan havo bosimi ostida titraydi.

Tovushlar bilan bog`liq nuqsonni tuzatish talaffuz mashqlaridan boshlanadi.

1-mashq

Tovush va tovush birikmalarini talaffuz qiling. «R», «L» tovushlari talaffuziga e'tibor bering:

R – r – r – r – r
Ri – re – ra – ro – ro` – ru
Vri – vre – vra – vro – vro` – vru
Pri – pre – pra – pro – pro` – pru
Li – le – la – lo – lo` – lu
Lri – lre – lra – lro – lro` – lru
Rli – rle – rla – rlo – rlo` – rlu
Tri – tre – tra – tro – tro` – tru

2-mashq

«R» undoshi bo`lgan so`zlarni talaffuz qiling, uni aniq talaffuziga e'tibor bering:

ro` mol	protsess
dor	hamroh
daraxt	shahar
birodar	qir
birrov	adir
ruju	misra
to`rt	gramm
artist	sur`at
progress	surat

3-mashq

«R» va «L» undoshlari talaffuzini farqlang:

Rom – lom	Retro – lekin
Rimt – litr	Ro`mol – Lo`g`imbek

Ro`baro` – lo`ttiboz	Ruxsat – ulus
Raxbar – lavozim	Arra – alla
Redaktor – lektor	Terak – elak
Risola – litr	Yurt – yalt
Roman – lola	Tir – til
Rusm – Luvr	O`rtoq – o`lpon
Radio – lagan	Tor – tol
Rasm – latta	

4-mashq

Gaplarni o`qing. Tovushlar almashib ketmayotganligiga e'tibor bering:

1. Bo`r bilan taxtaga yozdi.
2. Sho`r erlar yuvildi.
3. Armonlarga to`lgan yurak.
4. Tarixingdir ming asrlar ichra pinxon, O`zbeginim.
5. To`rqovoqda kaklik sayraydi.
6. Oloy bozori asosiy bozor hisoblanadi.
7. Arra bilan o`rik shoxi qirqildi.
8. Orom olgay tunda barcha jonzotlar.
9. Sahna aktyorning uyi bo`lib qolishi kerak.
10. San`at soxtalikni yoqtirmaydi.
11. Rejissyorning dastlabki ishi muvaffaqiyatli chiqdi.
12. Buyuk ipak yo`li orqali karvonlar qatnagan.

Topshiriq

Yuqorida so`zlar ishtirokida hikoya tuzing.

UNDOSH TOVUSHLARNING TUSHIB QOLISHI

Ba'zi so'zlar talaffuzida juft yoki ketma-ket undoshlardan biri tushib qoladi. Bu holat orfoepiya me'yorlariga mos keladi.

1-mashq

So`zlarni talaffuz qiling. So`z oxirida undosh tushib qolayotganiga e'tibor bering:

go`sht	ost	bo`rk
g`isht	ust	kerak
dard	to`rt	barg
do`sht	po`sht	turq
dasht	sust	ko`rk
	tark	ko`shk

2-mashq

Juft undoshlar talaffuziga e'tibor qiling:

million	balli	mustaqillik
milliard	to`qqiz	tullak
amma	sakkiz	issiq
alla	toqqa	tizziq
yalla	palla	achchiq
katta	boqqa	suyakka
to`rtta	soqqa	tuyoqqa
bitta	chekka	sochiqqa
salla	tikka	birrov
kalla	sulloh	darra

3-mashq

Maxsus tuzilgan gaplarni talaffuz qiling. Juft va ketma-ket kelgan undoshlar talaffuziga e'tibor bering:

1. G`isht qurilishi materiali.
2. Go`shtli qaynatma sho`rva.
3. Dasht bahorda nihoyatda go`zal bo`ladi.
4. Million ko`zlar sizga tikilar.
5. Alla bolam desin onalar.
6. Tonnalab paxta omborlarga jo`natildi.
7. Yaxshi darsni tugal asarga qiyoslash mumkin.
8. Bugungi ishni ertaga qo`yma.
9. Ona qimmatin ta'riflash uchun,
So`zlar xazinasini mulki etmaydi.
10. Onaning farzandga mehri beqiyos
farzand qanday oqlar ona haqini.
11. Yaxshiga yaxshi nom fe'lidan etar,
Sha'niga barcha el rahmatlar aytar.
12. Agar ulg`aysa o`g`lim,
Kiygizaman unga ham,
Tushmasin deb qaytadan,
Elimning boshiga g`am.
13. Yangi hayot sari biz tolmay chopamiz,
Qayna, Chotqol, kuchni ber, ey buyuk daryo.
14. Toshkent – qadimiy va navqiron shahar.
15. Toshkent – eng katta sanoat va madaniyat markazi.

Topshiriq

Yuqoridagi so`zlar va gaplardan foydalanib hikoya tuzing.

O'ZBEK XALQ MAQOLLARI

Talaffuzni o'stirishda foydalanish mumkin bo`lgan o'zbek xalq maqollari:

Ishlagan erni yashnatar,
Ishlamagan – qaqshatar.

Ishlaganning og`zi oshga etar,
Ishlamaganning boshi toshga tegar.

Ishning o`zini bilguncha,
Ko`zini bil!

Ikki quyonning ketidan quvgan,
Ikkalasidan ham quruq qolar.

Ikki nafsini tiygan – avliy.

Ikki nor urishsa,
O`rtasida chivin o`ladi.

Ikki oyog`ingni bir etikka tiqma!

Ikki shunqor tashlasa,
Bir qarg`aga em tushar.

Ikki qo`g`irchoqning boshi
Bir qozonda qaynamas.

Illat yo oshdan, yo moshdan.

Egilgan tayoqqa suyanma,
Seni ham egadi!

Esing borida etagingni yop!

Eskiga en bo`lguncha,
Yangiga eng bo`l!

Elga el qo`shilsa – davlat,
Eldan el ketsa – mehnat.

Aqli kishi ham adashadi.

Aqlli odam qish g`amini yoz er,
Kecha bo`lsa, xo`ragini oz er.

Arpa ekkan arpa olar,
Bug`doy ekkan bug`doy olar.

Avval dasturxon, so`ng butun jahon.

Avval iqtisod, keyin siyosat.

Odam qo`li cho`lni bo`ston qilar.

Obro` osmondan tushmas,
Mehnatdan kelar.

Odamni po`stin emas, ish qizdirar.

Odamning yuziga qarama, ishiga qara.

Odamzodni ish ovutadi.

O`zingga ravo ko`rmaganni
O`zgaga ravo ko`rma!

O`zingga yaxshilik tilasang,
Boshqaga yomonlik qilma!

O`zingni er bilsang,
O`zgani sher bil!

O`zganing toqu ravoqidan,
O`zingning ayvoning yaxshi.

To`g`ri so`zga to`sinq yo`q.

Uyurli qo`ydan bo`ri ham qo`rkar.

Ulfating novcha bo`lsa, sen past bo`l.

Uyat – o`limdan qattiq.

Uzoqqa tuzoq qo`yma!

Uyqu bosmasdan o`rningni sol!

Yoz chillasida ho`kiz o`libdi.

Yomondan qoch, yaxshiga quloch och!

Yomonlarga bosh bo`lguncha,
Yaxshilarga qosh bo`l!

Yomondan yorti qoshiq.

Er qadrini bilmaydi, er ekmagan dehqonlar.
El qadrini bilmaydi, el ko`rsagan donolar.

Erga tushgan – etimniki.

Etim qizdan, etim xotin afzal.

Etim o`z oshini ichar,
Kishining minnatini tortar.

Yaxshi bilan yursang, etarsan murodga,
Yomon bilan yursang, qolarsan uyatga.

Yaxshi bilan o`ynasang, kunda bozor,
Yomon bilan o`ynasang, ko`ngling ozor.

Yaxshi bilan o`rtoq bo`lsang,
Yaxshi yo`lga boshlaydi.
Yomon bilan o`rtoq bo`lsang,
Bor-yo`g`ingni qashlaydi.

Yaxshi bo`lsang, yasharsan,
Nasibangni osharsan.

Yaxshini maqtasang – yarashur,
Yomonni maqtagan – adashur.

Yurtdan ayrilganni yov chopadi.

Yugurgan – quruq qolmas.

Yuk ko`targan yuzaga chiqadi.

Yurakda bo`lsa, bilakka chiqadi.

Bulbul chamanini sevar,
Odam – Vatanini.

Boboning tol tikkani –
O`ziga nom ekkani.

Bir kishi ariq qaziydi,
Ming kishi suv ichadi.

Birni birov berar,
Ko`pni – mehnat.

Pista – bodom bilan,
Odam – odam bilan.

Piyozning po`sti ko`p,
Yaxshining do`sti ko`p.

Gap bilan va'da berma,
Ish bilan dalda ber!

Gap bilguncha ish bil.

Gapni kam so`zla,
Ishni ko`p so`zla!

Gulni gul dermu kishi,
Gulning tikoni bo`lmasa.
Yorni yor dermu kishi,
Yorning vafosi bo`lmasa.

Kishi bersa, ko`rimli,
Mehnat bersa, to`yimli.

Kuygandan kuy chiqadi.

Ko`zdan nari – mehrdan nari.

Ko`z qaerda bo`lsa,
Mehr ham shu erda bo`ladi.

Daraxt yaprog`i bilan ko`rkam,
Odam – mehnati bilan.

Daraxtni er ko`kartiradi,
Odamni el ko`kartiradi.

Daryo suvini bahor toshirar
Odam qadrini mehnat oshirar.

Dono – durdan a’lo.

Donolikning cheki yo`q.

Ter to`kib sochsang urug` ,
Er seni qo`ymas quruq.

Tirishdim, tog`dan oshdim,
Yorug`lik sari yo`l ochdim.

Terlab – terlab ishlasang,
To`yib – to`yib osharsan.

Tiz cho`kib yashaguncha,
Tik turib o`lgan yaxshi.

Zarhal ko`rinar soxta,
Rosa bilib, so`ng maqta.

Zamona zulmni yoqtirmas!

Zamoni birning zori bir.

Zamoniga yarasha amali.

Zamoni boshqaning amali boshqa.

So`zdan so`zning farqi bor,
O`ttiz ikki narxi bor.

Seni ish engmasin,
Sen ishni eng!

Suv – ekinning qoni,
Mehnat – uning joni.

Suv o`jar, inson undan ham o`jar.

Suv qadrini dashta yurgandan so`ra!

Vatanning vayronasi –
Umrning g`amxonasi.

Vaqting ketdi – baxting ketdi.

Vafosizda xayo yo`q,
Xayosizda vafo yo`q.

Va'daga vafo – mardning ishi,
Va'dasiz subutsiz kishi.

Farosatsiz falokatga yo'liqar.

Fikri ravshanning so`zi ravshan.

Fiksiz odamdan tosh yaxshi.

Jon bo`lsa, jahon topilar,
Osh bo`lsa, qozon topilar.

Jinnini jinni desang, g`ashi kelar.

Jahl – johilning quroli.

Johillikdan jon chiqar,
Qobillikdan dong chiqar.

Jahl – dushman, aql do`st.

Shamolni kun qichqirma,
Tovushing zoe ketadi!

Shoshganning ishi unmas.

Shoshganning ishi o`ngidan kelmas.

Shoshgan o`rdak ham boshi bilan sho`ng`idi.

Mardning ishi mehnat.

Mehnatdan do`srt ortar,
G`iybatdan – dushman.

Mehnatdan qo`rqma, minnatdan qo`rq!

Mehnating qattiq bo`lsa,
Eganing totli bo`lar.

Qarasang, qand ersan,
Qaramasang, pand ersan.

Qor – arning ko`rpasi,
Yomg`ir – uning sho`rpasi.

Qo`lingdan bermasang, yo`lingdan ber,
Yo`lingdan bermasang, so`zingdan ber.

Qo`lidan ishini olsang,
Og`zidan oshini olasan.

Qiz ishvasiz bo`lmas,
Qozi rishvasiz bo`lmas.

Qizil oyoq paydo bo`lsa,
Qizil yuzdan judo qilar.

G`ar bo`l, o`g`ri bo`l,
Insof bilan bo`l!

G`am keldimi, eshigingni och!

G`ururlik g`urbatga solar.

Xazina g`oyibdan emas, mehnatdan.

Xotin chiroyi erdan,
Hosil chiroyi erdan.

Xat – yarim diyordi.

Xon gapirsa, nonikki ma'qul,
Bek gapirsa – bekniki.

Xon xondan qo`rqadi,
Xon xotinidan qo`rqadi.

Xon xonga kelib yig`lar,
Xon kelib xotiniga yig`lar.

Halol ish – lazzatli emish.

Hurmating – savlating,
Mehnating – davlating.

Hosiling kam bo`lsa, havodan ko`rma!

Hunar – birlikda, rizq – tiriklikda.

Har kim chiroq yoqsa,
Yorug`i o`ziga tushar.

XOTIMA

Barcha mashqlarni ishlab chiqqach, diktofonga qaytadan yozing.
Yozuvni dastlabkisi bilan chog`ishtiring.

Keyingi mashg`ulotlarda nimaga e'tibor berish zarurligini
belgilab oling.

O`zingizning kundalik va kasbiy nutqingizni nazorat qilishga
o`rganing.

Dastlabki muvaffaqiyatdan qoniqish hosil qilmang!

Bu faqat ishingizning boshi, xolos.

Nutqni takomilga erishtirish ishi uzoq, davomli jarayondir.

Bir to`sinqni engib o`tsangiz boshqasiga duch kelasiz.

Kayfiyatning tushib ketmasin!

Doimo intilishda bo`ling.

Mehnat qilishdan tolmang!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bobonazarova B. Sahna nutqi. – T., 2004.
2. Бруссер А.М., Оссовская М.П. 104 упражнения по дикции и орфоэпии. –М., 2006.
3. Voxidov E. Muhabbatnoma. Saylanma. –T.: G`ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986.
4. Inomxo`jaev S., Xo`jaeva L.A. Badiiy o`qish asoslari. – T.: O`qituvchi, 1973.
5. Козляников И.П. Сценический речь. –М., 1972.
6. Леонардш Е.И. Дикция и орфоэпия. – М.: Просвещение, 1967.
7. Olimjonova Z.Yu, To`laganov A.N. Sahna nutqi. – T.: Sharq, 2005.
8. O`zbek xalq maqolalari. –T.: G`ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978.
9. O`zbek tilining imlo lug`ati. –T.: O`qituvchi, 1995.

MUNDARIJA

So`zboshi.....	3
Nutqdagi umumiy nuqsonlar.....	4
Xususiy nutq nuqsonlari qanday aniqlanadi?.....	5
Unli tovushlar.....	5
Undoshlarni so`zlar o`rtasi va oxirida jarangli va jarangsiz talaffuz etilishi.....	15
Ayrim undosh tovushlarning ketma-ketligi.....	23
Undosh tovushlarning tushib qolishi.....	47
O`zbek xalq maqollari.....	49
Xotima.....	61
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....	62

Xatira Djuldikaraeva

S A H N A N U T Q I talaffuz texnikasi

*san'at institutiti va kollejlar
talabalari uchun o'quv qo'llanma*

Kompyuterda teruvchi:
G.YAKUBOVA

Texnik xodim:
K.XALILOV

Bosishga ruxsat berildi 2007 yil 28 dekabry.
Terishga berildi 2008 yil 10 yanvar. Bichimi 148X210.
Bosma tabog'i 4. Ofset qog'ozni usulida. Adadi 300. Buyurtma №12.

O'zbekiston Davlat san'at instituti Bosmaxonasida bosildi.
Toshkent shahar, Mirobod tumani, Mironshoh – 123.